

INGLIZ TILIDA PRODUKTIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Shohida Malikjon qizi Otahanova

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika uniersiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Bo'lajak o'qituvchilarda ingliz tilidagi produktiv ko'nikmalarni, xususan, speaking va writing ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari jihatidan, Produktiv ko'nikmalarning kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni, ularni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar hamda zamonaviy metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, kommunikativ yondashuv, vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Language Teaching), jarayonga yo'naltirilgan yozuv (Process Writing), loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) va raqamli ta'lim texnologiyalarining speaking hamda writing ko'nikmalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, produktiv ko'nikmalar, speaking, writing, kommunikativ kompetensiya, ingliz tili, metodika, Task-Based Language Teaching, Process Writing, pedagogik texnologiyalar.

Annotation: This study examines the theoretical and methodological foundations for developing productive English language skills—specifically speaking and writing—in prospective teachers. It analyzes the role of these productive skills in forming communicative competence, the pedagogical factors influencing their development, and modern methodological approaches. Furthermore, it highlights the potential of the communicative approach, Task-Based Language Teaching, Process Writing, Project-Based Learning, and digital educational technologies for enhancing both speaking and writing skills.

Keywords: pre-service teachers, productive skills, speaking, writing, communicative competence, English language teaching, methodology, Task-Based Language Teaching, Process Writing, digital technologies.

Аннотация: Проанализированы теоретико-методические основы развития продуктивных навыков английского языка у будущих учителей, в частности говорения (speaking) и письма (writing). Рассмотрены роль продуктивных навыков в формировании коммуникативной компетенции, педагогические факторы, влияющие на их развитие, а также современные методические подходы. Кроме того, освещены возможности коммуникативного подхода, задачно-ориентированного обучения (Task-Based Language Teaching), процессно-ориентированного письма (Process Writing), проектного обучения (Project-Based Learning) и цифровых образовательных технологий в развитии навыков говорения и письма.



Ключевые слова: *будущие учителя, продуктивные навыки, говорение, письмо, коммуникативная компетенция, английский язык, методика обучения, Task-Based Language Teaching, Process Writing, цифровые технологии.*

Продуктив ko'nikmalar faol ko'nikmalar sifatida e'tirof etiladi. Til o'rganuvchilar ushbu ko'nikmalar orqali tilni faol ravishda hosil qiladilar va undan foydalanadilar. Produktiv ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega, chunki ular talabalarga auditoriya sharoitida real hayotga yaqin kommunikativ faoliyatlarni bajarish imkoniyatini yaratadi. O'rganuvchilar tilni tinglash orqali qabul qiladilar va keyinchalik uni produktiv ko'nikmalar vositasida ifodalashga harakat qiladilar.

Speaking (og'zaki nutq) tilni og'iz orqali ifodalash jarayonidir. Gapirish vaqtida inson tanasining turli a'zolari hamkorlikda ishlashi natijasida nutq tovushlari hosil qilinadi. Chastainning ta'kidlashicha[2], speaking ko'nikmasi grammatika, strategik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya hamda diskurs kompetensiyasi kabi bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladigan produktiv ko'nikma hisoblanadi. Uning fikriga ko'ra, speaking faqat tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, mos so'zlarni tanlash yoki grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish bilanagina cheklanmaydi.

Gapirish ko'nikmasi aksariyat xorijiy til o'rganuvchilar imkon qadar tezroq mukammal egallashni istaydigan til ko'nikmasidir. Kundalik muloqotda speaking yozishga nisbatan ancha ko'p qo'llaniladi. Og'zaki nutqning asosiy vazifasi insonlar o'rtasidagi ijtimoiy muloqotni ta'minlashdan iborat.

Yozma nutqdan farqli ravishda, og'zaki nutq real vaqt rejimida yaratiladi va qabul qilinadi. Shu sababli, ham so'zlovchi, ham tinglovchi aytmoqchi yoki eshitayotgan fikrni rejalashtirish, ifodalash va tushunish uchun cheklangan vaqtga ega bo'ladi. Nutq odatda yuzma-yuz muloqot jarayonida qo'llaniladi hamda u vaqtinchalik, spontan va vaziyatga mos ravishda o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Bundan tashqari, og'zaki muloqot imo-ishoralar, mimika va boshqa noverbal vositalar kabi tana harakatlari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Speaking (og'zaki nutq) produktiv ko'nikma hisoblanadi.

U fikr yoki xabarni shakllantirish, uni boshqalarga yetkazish hamda boshqa insonlar bilan o'zaro muloqot qilish jarayonini o'z ichiga oladi. McDonough[3] va Shaw[3]ning ta'kidlashicha, samarali va haqiqiy kommunikatsiyani ta'minlashda speaking ko'nikmasi muhim o'rin tutadi.

U g'oya va fikrlarni ifodalash, istak yoki niyatni bayon etish, shuningdek, muayyan muammoni muhokama qilish va uni hal etish jarayonlarini qamrab oladi. Demak, speaking tilning og'zaki shaklda ifodalanishi bo'lsa, writing (yozma nutq) tilning yozma shaklda namoyon bo'lishidir.



McDonough[3] va Shaw[3] fikriga ko'ra, speaking jarayonini listening (tinglab tushunish) ko'nikmasidan ajratib ko'rish juda qiyin, chunki ular o'zaro uzviy bog'liqdir. Speaking insonlarning jamiyatda bir-biri bilan muloqot qilishiga xizmat qiladi. Speaking va writing o'zaro taqqoslanganda, og'zaki nutqning real vaqt rejimida yaratilishi va qabul qilinishi bilan farqlanishi ko'rinadi. Bunda ham so'zlovchi, ham tinglovchi aytmoqchi bo'lgan fikrini rejalashtirish, ifodalash va tushunish uchun cheklangan vaqtga ega bo'ladi. Og'zaki nutq odatda yuzma-yuz muloqot jarayonida amalga oshiriladi hamda imo-ishoralar, mimika va boshqa noverbal vositalar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Ko'pgina ta'lim muassasalarida speaking ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha alohida o'quv dasturi mavjud bo'lmasa-da, mazkur ko'nikma o'quvchilarning nafaqat ta'limdagi, balki hayotdagi muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Til o'rganuvchilar odatda xorijiy tilni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatini o'zlarining og'zaki nutq kompetensiyasi qay darajada rivojlanganligi bilan baholaydilar. Matinning ta'kidlashicha, shaxsning speakingdagi ravonligi (fluency) uning mazkur tilni qay darajada egallaganligini ko'rsatuvchi muhim mezon hisoblanadi.

Speaking ko'nikmasining samarali rivojlanishi faqat til birliklarini o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Mazkur jarayon o'rganuvchining kommunikativ vaziyatni tahlil qila olishi, suhbatdoshning fikriga mos ravishda javob qaytarishi, muloqot strategiyalaridan o'rinli foydalanishi hamda nutqni vaziyat va auditoriyaga moslashtira olish qobiliyatiga ham bog'liq.

Shu sababli zamonaviy xorijiy til metodikasida speaking ko'nikmasi kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi[10]. Speakingni rivojlantirishda tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlari o'zaro uyg'un holda shakllantirilishi lozim.

Talaba o'z fikrini erkin ifodalashi uchun yetarli lug'at boyligiga ega bo'lishi, grammatik birliklardan to'g'ri foydalana olishi hamda so'zlarni aniq va ravon talaffuz qilishi zarur. Biroq ushbu komponentlarning alohida rivojlanishi yetarli emas. Ular faqat real kommunikativ vazifalar orqali integrallashgandagina speaking kompetensiyasining samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xorijiy tilni o'qitishda speaking ko'nikmasini rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri kommunikativ topshiriqlar hisoblanadi. Jumladan, juftlik va guruh ishlari, munozaralar, rol o'yinlari, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyiha ishlari hamda taqdimotlar talabalarni faol muloqotga jalb etadi. Bunday faoliyatlar davomida o'rganuvchilar nafaqat til birliklarini qo'llaydilar, balki fikrlash, hamkorlik qilish, muammoni hal etish va tanqidiy tahlil qilish kompetensiyalarini ham rivojlantiradilar. Bo'lajak o'qituvchilar uchun speaking ko'nikmasining ahamiyati yanada yuqoridir.





Chunki pedagogning kasbiy faoliyati asosan og'zaki muloqotga tayanadi. O'qituvchi darsni tashkil etish, yangi mavzuni tushuntirish, savol-javob o'tkazish, fikr-mulohaza bildirish, o'quvchilarni rag'batlantirish hamda baholash jarayonlarida doimiy ravishda og'zaki nutqdan foydalanadi.

Shuning uchun pedagogik ta'lim jarayonida speaking ko'nikmasini rivojlantirish kasbiy kompetensiyani shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, speaking ko'nikmasini rivojlantirishda muntazam fikr-mulohaza (feedback) berish muhim metodik omil sanaladi.

O'qituvchi tomonidan berilgan konstruktiv tavsiyalar talabaning nutqidagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish hamda keyingi muloqotlarda yanada ishonchli va ravon so'zlashiga yordam beradi. Tengdoshlar tomonidan amalga oshiriladigan o'zaro baholash (peer assessment) va o'z-o'zini baholash (self-assessment) ham speaking kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi[6].

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari speaking ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Onlayn muloqot platformalari, videokonferensiyalar, podkastlar, sun'iy intellektga asoslangan suhbat dasturlari hamda virtual ta'lim muhiti talabalarga auditoriyadan tashqarida ham muntazam og'zaki nutq amaliyotini olib borish imkonini beradi. Natijada speaking ko'nikmasining rivojlanishi uzluksiz va shaxsga yo'naltirilgan xarakter kasb etadi.

Demak, speaking ko'nikmasini rivojlantirish jarayoni lingvistik bilimlarni egallash bilan bir qatorda kommunikativ faoliyatni tashkil etish, interaktiv metodlardan foydalanish, refleksiya va zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni talab etadi. Aynan shunday yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning ingliz tilidagi og'zaki muloqot kompetensiyasini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education. Paris: UNESCO. (2023).
2. Chastain, K. Developing Second Language Skills: Theory and Practice (3rd ed.). Orlando, FL: Harcourt Brace Jovanovich. (2018)
3. McDonough, J., Shaw, C., & Masuhara, H. Materials and Methods in ELT: A Teacher's Guide (3rd ed.). Wiley-Blackwell. (2013).
4. Brown, H. D., & Lee, H. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (4th ed.). Pearson Education. (2015).
5. Richards, J. C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press. (2008).





6. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). Pearson Longman. (2007).
7. Nation, I. S. P., & Newton, J. *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking* (2nd ed.). Routledge. (2020).
8. Hyland, K. *Second Language Writing*. Cambridge University Press. (2019).
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press. (2014).
10. Dávila, A. M. Helping Pre-Service Student Teachers Develop Teaching Skills in English Proficiency Courses in an EFL Teacher Education Program: A Phenomenological Study. *Universal Journal of Educational Research*, 8(6), 2416–2435. (2020).
11. Rao, P. S. The Importance of Speaking Skills in English Classrooms. *Alford Council of International English & Literature Journal (ACIELJ)*, 2(2), 6–18. (2019).
12. Kellogg, R. T. Training Writing Skills: A Cognitive Developmental Perspective. *Journal of Writing Research*, 1(1), 1–26. (2008).
13. Graham, S. Changing How Writing Is Taught. *Review of Research in Education*, 43(1), 277–303. (2019).
14. Hyland, K., & Hyland, F. *Feedback in Second Language Writing: Contexts and Issues*. Cambridge University Press. (2019).
15. Ismail, S. A. A., et al. An Investigation into EFL Pre-service Teachers' Academic Writing Strategies. *Heliyon*, 9(3), e13925. (2023).

